



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2021-yil. 12-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz



"YANGI O'ZBEKISTON" bog'iда yangi yil shukrini kezmoqda

Ushbu sonda



Dolzarb mavzu



Tahlil



Tadqiqotlar



Mulohaza



Свет негаснущих имен

Nom qo'yish – ham san'at, ham ilm

Asqad Muxtor falsafiy lirkasi mohiyati

Mubolag'a imkoniyatlari va shoir mahorati

Lingvopoetik paradigma va gerbarizm

Писатель, ученый, провидец

3-bet

19-bet

40-bet

44-bet

79-bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtarga olingan.

2021-yil. 12-sont

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Nasrullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'L DOSHEV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinosi)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyat ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualiflarning tahririyat nuqtayi nazariy muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2021.25.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturası. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 3560 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
XALQ TA'LIMI VАЗІRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Tolib ENAZAROV. Nom qo'yish – ham san'at, ham ilm	3
Nadira RASULOVA. Onlayn muhit – talabalarning inglez tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirishda muhim omil	4

DARS – MUQADDAS

Sadoqat RO'ZIYEVA. Mohir-u mehr-u mahorat	6
---	---

METODIK TAVSIYA

Mo'tabar TAJIBAYEVA. Og'ir nutq nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga tayyorlash	8
--	---

TAHLIL

Gulnora MUQIMOVA. O'zbek tili o'simlik nomlarining leksikografik talqini	9
--	---

Gulshod KARIMOVA. Grammatikalitsiya va uning boshqa yondosh hodisalarga munosabati	12
--	----

Mo'min TURDIBEKOV. Turkiy toponomikaning lingistik tahlili	14
--	----

Nilufar NAMOZOVA. Hajiyiv-majoziy she'riyatning o'ziga xos xususiyatlari	15
--	----

Normuhammad UBAYDULLAYEV. Adabiyot darslarida ijodkor shaxsini o'rganish	18
--	----

Jo'rabej ISLOMOV. Asqad Muxtor falsafiy lirikasi mohiyati	19
---	----

Gulnoza JO'RAYEVA. Hajiyiv-majoziy she'riyatning o'ziga xos xususiyatlari	21
---	----

Farizod AKROMOVA. O'rta asrlar adabiyoti tarixiy bosqichlari	22
--	----

Turg'unoy KAZIYEVA. Fanlararo integratsiyalashuvda fonetik uslubiyatning o'rni	24
--	----

TILSHUNOSLIK

Muniraxon MUXITDINOVA. Chet til kommunikativ kompetensiyalarini masofaviy o'qitish texnologiyalari yordamida rivojlantirishning psixolingvistik jihatlari	26
---	----

Dildora YULDASHEVA. To'qimachilik va engil sanoat sohasi terminlarining o'ziga xos xususiyatlari	28
--	----

Dilnoza ABDUKABIROVA. Main types of phraseological units and their peculiarities	29
--	----

Sayyora KABILOVA. Metaphor in newspapers	30
--	----

TARJIMASHUNOSLIK

Saida SULTANOVA. Zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarda talabalarни badiiy tarjimaga o'rgatish masalalari	33
--	----

TADQIQOTLAR

Dilnoza MAMATOVA. Maktabgacha ta'lim taskhilotlari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshiruvchi omillar	35
--	----

Dilorom ABDULLAYEVA, Ruqiya ASHURBAYEVA. Integratsiya va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati	38
--	----

Muzaffar MAMATQULOV. Mubolog'a imkoniyatlari va sho'r mahorati	40
--	----

Arslon ESHMURODOV. Milliy internet jurnalistikasining jamoatchiligi fikriga ta'siri: manipulativ holat, muammo va yechim	41
--	----

MULOHAZA

Nazokat YUSUFJONOVA. Ta'lim turkman tilida olib boriladigan maktablarining 7-sinf "Adabiyot" darsligida xalq dostonlari mavzusining o'rganilishi	44
--	----

KICHIK TADQIQOTLAR

Orzigel HAMROYEVA. Shamsiddin Qays Roziyining "Al-mo'jam fi ma'oyiri ash'or ul-ajam" asarining o'rganilishi	45
---	----

Elmurod NASRULLAYEV. Navoiyning tasavvuf ta'lomitiga munosabati	47
---	----

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Xilola ЮНУСОВА. Технология интеллектуальных игр на практических и семинарских занятиях по филологическим дисциплинам	49
--	----

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Faxriddin АБДУРАХМАНОВ. Лексико-семантические классы глаголов трехактантных предложений в современном русском языке	53
---	----

Dilorom ISLOMOVА. O nekotorykh funktsiyakh indikatora du'l v russkikh toponimakh	55
--	----

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Bekkenbaev РЕЙМОВ, Saïda СУЛТАНОВА. Изучение фразеологизмов, характеризующих эмоциональное состояние человека, в лингвокультурологическом ракурсе	57
---	----

Dilorom XOLMATOVA. Презентация материалов по этнографии на занятиях по русскому языку как иностранному	58
--	----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Юлия ТИНЬКОВА. Изучение авторской песни в школе	61
---	----

Эльвина УМЕРОВА, Севара СУЛТАНОВА. Поэтика аллегории в творчестве Антуана де Сент-Экзюпери	62
--	----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Oksana ГИБРАЛТАРСКАЯ. Учебник-хрестоматия в высшей школе: pro et contra	64
---	----

Dildora ХАШИМОВА. Роль электронного учебника в совершенствовании речевых навыков и умений в учебно-профессиональной сфере	66
---	----

Ozoda ГУЛЯМОВА. Языковая экспликация когнитивно-стилистических особенностей фонетических средств категорий интенсивности	69
--	----

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Timur ALIMOV. Перевод языка как практическая теория языка	71
---	----

Gulnoza САБИРОВА. Лингвистический аспект формирования англоязычной речевой компетенции школьников на основе Web-технологий	73
--	----

Dildora ТОЛИПОВА. Использование коммуникационной сети при изучении русского языка как иностранного	75
--	----

ОБСУЖДАЕМ, СПОРIM

Ramina ЯГАФАРОВА. Какой сленг и зачем употребляют в средствах массовой информации?	77
--	----

СВЕТ НЕГАСЧУЩИХ ИМЕН

Anatolij LIKHODZIEVSKIJ. Писатель, учёный, провидец	79
---	----

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Muzaffar MAMATQULOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MUBOLAG'A IMKONIYATLARI VA SHOIR MAHORATI

Annotatsiya. Maqolada yozma va og'zaki adabiyotda mubolag'a, uning o'ziga xosligi masalalariga e'tibor qaratiladi. Xalq og'zaki ijodida mubolag'a ning ifodalanishi "Tohir va Zuhra" dostoni misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: mubolag'a, xalq og'zaki ijodi, doston, bayt, misra, tasvir vositalari, mubolag'a turlari.

Annotation. The article focuses on the issues of exaggeration and its specificity in written and oral literature. The expression of exaggeration in folklore is illustrated by the example of the epic "Tahir and Zuhra".

Keywords: exaggeration, folklore, epic, distich, verse, means of expression, types of rhetoric.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы преувеличения и ее специфичность в письменной и устной литературе. Выражение преувеличения в фольклоре иллюстрируется на примере эпоса «Тахир и Зухра».

Ключевые слова: преувеличение, фольклор, эпос, байт, стих, средства выражения, виды риторики.

Mubolag'a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og'zaki ijodida ham keng foydalaniб kelingan. O'tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag'a to'g'risida ayrim fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida "... mubolag'a andin iboratturkim, so'zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchlulugi yoki kuchsizluguning ortiqlig'in, ul ortiqqliq odattin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf yetuk ermas degan xayolga bormayturgan darajada, da've qilur", [1: 152] deb yozsa, Fitrat "Adabiyot qoidalari" risolasida "tuyg'ularimizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo'lg'anidin bir oz orttirib ko'rsatmakka mubolag'a deymiz. Mubolag'a chin (samimi) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki yasama bo'lmasa, tuyg'ulardagi kuchlilik – o'tkirlikni onglatishga katta yordam qiladir", [2: 71] deb qayd etadi.

Darhaqiqat, mubolag'aning mohiyati biror narsa, hodisa, voqeа yoki insonga xos bo'lgan belgi, xususiyatlari orttirib, kuchaytirib tasvirlash va shu yo'l bilan ifodani obrazli tarzda bo'rttirish, uning ta'sirchanligi oshirish bilan izohlanadi.

Mubolag'a asosida yaratilgan misra yoki baytlar "Tohir va Zuhra" dostonida ham alohida o'ren tutadi. Dostondagi mubolag'alar, asosan, masnaviy va g'azallar tarkibida uchraydi. Masnaviydagи mubolag'alar ko'proq voqealar tasviri bilan bog'liq vaziyatlar, shuningdek, obrazlarning ayrim xususiyatlarini kuchliroq bo'rttirish jarayonida yuzaga chiqadi, ko'p hollarda tashbih, tashxis, istiora kabi badiiy tasvir vositalari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Bag'dod hukmdori Odilshohning uchala qizi go'zalligi tavsifiga aloqador quyidagi baytda tashbih bilan birgalikda mubolag'aning ham alohida vazifasi bor:

*Bu uch qizlar edi oydin ziyoda,
Ko'rub shohlar bo'lur erdi piyoda.* [3: 84]

Ko'rindiki, birinchi misra qizlarning go'zallik tim-soli bo'lgan oydan ham chiroyli ekanligidan xabar bersa, ikkinchi misradagi mubolag'a qizlar chiroyining

beqiyos darajada ekanligini asoslashga xizmat qiladi. Shohlarning piyoda bo'lishi – mubolag'a ko'rsatkichi sanaladi. Zero, shohlarni otan tushirib, piyodaga aylantirish judayam oson ish emas. Buning uchun ular go'zallikning maftuniga aylanishi lozim. Odilshohning uch qizi ham latofat bobida tengsiz edi. Shu sababli ham bunday go'zallik oldida har qanday shoh hayratda qolardi.

Tohir Bag'dodda yetti yil yashasa-da, ko'ngli doimo Zuhrada bo'ldi. Zaruratdangina Odilshohning saroyida ko'rinish berardi. G'amginlik uning asosiy hamrohi edi. O'zidan o'tganlarni faqat o'zi va Tangrigina bilardi:

*Ki yetti yil qilib anda madoro,
Oning holig'a yig'lar sangi xoro.* [3: 94]

Baytning ikkinchi misrasida mubolag'a qo'llanilgan. Xarsang toshning yig'lashi – badiiy tasvir vositasi ko'rsatkichi hisoblanadi. Mubolag'a tashxis bilan bog'lanish asosida yuzaga kelgan bo'lib, lirik qahramonning holatini bo'rttirish uchun xizmat qilyapti.

Dostonda ko'z yoshi bilan bog'liq mubolag'ali tasvirlar anchagini uchraydi. Ko'z yoshi – qayg'uli vaziyat va holatni yorqin ifodalash vositalaridan biri. Bu jihatdan qaraganda quyidagi misralarda muallif yanada ta'sirchanlikka erishgan:

*Bu abyotni o'qub chiqdi qoshidin,
Ro'molin ho'l etibon ko'z yoshidin.* [3: 132]

Bayt Tohirning o'z yurtiga qaytish uchun Mohimxonimidan ruxsat olib chiqqanidan so'ng keltirilgan. Shu darajada qahramonning ko'p yig'laganidan ro'molning ho'l bo'lib ketishi hodisasi mubolag'aning mahsuli hisoblanadi.

Dostondagi voqealar rivojini kuzatish ko'z yoshining Zuhra bilan bog'liq jarayonlarda ham mubolag'a vositadan unumli foydalaniлgan holda tasvirlanganini ko'rsa-tadi:

*Ki tongla bordi ul qabrning boshig'a,
Bori yo'l ho'l bo'lubon ko'z yoshig'a.* [3: 183]

Birinchi misrada Zuhra Tohirning qabrimizi ziyorat qilish uchun qabristonga borgani xabari berilsa, ikkinchi misradagi mubolag'a uning qayg'u-alamga to'la qiyofasini gavdalantiradi. Tohirdan ayrilish Zuhra uchun oson ish emas edi. Sevgilisining o'limi uning azoblarini yanada oshiradi. "Bori yo'l ho'l bo'lubon ko'z yoshig'a" misrasi esa Zuhraning Tohir dardidagi iztiroblarini ifodalaydi.

Dostondagi ayrim mubolag'ali vaziyatlar xalq og'zaki ijodi namunalardagi ayrim tasvirlarga o'xshab ketadi. Mubolag'ali tasvirlar orasida bir bayt alohida ko'zga tashlanib turadi. Unda podshohning qizi Zuhrani Qorabotirga nikohlash maqsadida yoshi ulug'lar yig'ilib, xursandchilik qilgani bayoni berilgan. Baytning ikkinchi misrasi ayrim xalq ertaklardagi to'ylarni yodga soladi. Chunki ertaklardagi to'ylarda ham hisobsiz jonivorlar so'yilib, bir necha kunlab osh beriladi:

*Ulug'larni yig'ib ul kun qilib to'y,
Ki so'ydilar yuz ot-u yuz tuman qo'y.* [3: 163]

Tuman – o'n ming degani. Yuz tuman bir million bo'ladi. Podshohning to'y uchun bir million qo'y so'yishi-ga aqlan ishonish qiyin. Shoir baytda mubolag'aning g'uluv nomli turini muvaffaqiyatli qo'llagan. G'uluv podshohning Zuhra Qorabotir bilan yashashga rozi degan o'nda juda xursand bo'lib ketganini ifodalashga xizmat qilgan.

"Tohir va Zuhra" dostonidagi g'azallarda mubolag'a mohirona qo'llangan. Ularda oshiqning iztirobli holatlari bo'rttirish, shu bilan birga, obrazli vaziyatlar, yangicha tafakkur mahsuli bo'lgan adabiy hodisalar yaratish borasida ham mubolag'aning o'mni beqiyos:

*Do'stlarim, jon ichra ko'rdum ul mayi gulgomni,
Yuzining aksi magar xurshid aylar jomni.* [3: 149]

G'azal do'stlarga murojaat bilan boshlanadi. Mayi gulgom – qizil may tushunchasini anglatadi. May to'la qadahga yuzning aksi tushib, uni quyoshga aylantirishi mubolag'a mahsulidir. Baytning mazmuni: Do'stlarim, butun borlik ichra shunday qizil mayni ko'rdim. Unga yuzining aksi tushib, go'yoki, quyosh kabi qadahdan nur taralayotgandek.

G'azallardagi mubolag'alar ko'proq ma'shuqa bilan aloqador jarayonlarni bo'rttirish asosida yuzaga kela-di. Ma'shuqaning yuzi, labi, og'zi, sochi, ko'zi – tashqi ko'rinishi ayrim baytlarda beqiyos darajada ideal-lashtirilsa, ba'zan uning fazilatlari ham mubolag'a aso-sida bo'rttiriladi:

*Lutf etib qilg'il karam, ey podshohi husnkim,
Ro'zi anvardek qilur lutfing qorong'u shomni.* [3: 149]

Oshiq uchun ma'shuqaning marhamati – eng katta yaxshiliklardan biri. Agar haqiqatan ham ma'shuqa lutf qiladigan bo'lsa, oshiq uchun unutilmas bayram. Eng asosiysi, unda visol umidi paydo bo'ladi, zimistonday ko'ngli yorishadi. Lutfning qorong'u shomni kunduzdek yop-yorug' qilishi mubolag'a ko'rsatkichi hisoblanadi.

Mubolag'a o'tmis zamonalardan beri badiiy ijod olamida keng qo'llanib kelinadi. U har bir asarning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Sayyodiyning "Tohir va Zuhra" dos-toni sof ishqiy mazmundagi asar bo'lgani va undagi voqealar tizimi ko'proq qayg'u-alam bilan bog'liq tasvir-larga qaratilganidan mubolag'a ham qahramonlarning iztirobli holatlarini kuchaytirish maqsadida qo'llangan. Ayniqsa, Tohir va Zuhraning dardli kechinmalari, ichki dunyosi ifodasi, g'azallardagi bosh qahramonlar tilidan aytilgan ruhiy holatga oid tasvirlar mubolag'a vositasida yanada ta'sirchanlikka erishadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Husayniy A. Badoye' us-sanoyi'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
2. Fitrat A. Adabiyot qoidalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
3. Sayyodiy. Tohir va Zuhro. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.

Arslon ESHMURODOV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining
mustaqil izlanuvchisi*

MILLIY INTERNET JURNALISTIKASINING JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIRI: MANIPULATIV HOLAT, MUAMMO VA YECHIM

Annotatsiya. Maqolada milliy Internet jurnalistikasining jamoatchilik fikri shakllanishidagi manipulativ holatning ijobjiy va salbiy tendensiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan Internet saytlari orqali tarqatilayotgan axborotlarning jamoatchilik

Annotation. This article provides a comparative analysis of the positive and negative trends in the manipulative state of national Internet journalism in the formation of public opinion. The impact of the information disseminated through state-registered Internet sites as mass media is considered.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ положительных и отрицательных тенденций манипулятивного состояния национальной Интернет-журналистики в формировании общественного мнения. Рассматривается влияние инфор-